

KUNJUT URUG'INING LABORATORIYA SHAROITIDA UNUVCHANLIGINI TAHLIL QILISH

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1109>

Utepbergenova Aysuliu Rambergenovna

tayanch doktorant, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

E-mail: utepbergenovaaysuliw433@gmail.com

Muminova Zulfiya Komilovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti dotsenti,
q-x.f.n. (PhD)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Qora Shahzoda kunjut navining morfobiologik va xo'jalik jihatdan qimmatli belgilari hamda uni O'rta Osiyo sharoitida yetishtirish agrotexnologiyasi o'rganilgan. Navning vegetatsiya davri, o'simlik bo'yi, barg va qo'zoqcha tuzilishi, urug'ining morfologik ko'rsatkichlari hamda yog'lilik darajasi tahlil qilingan. Tadqiqotlarda sug'oriladigan va lalmi maydonlarda o'sish xususiyatlari qiyosiy baholangan. Shuningdek, urug'lik sifati, ekish muddati, ekish me'yorlari va sug'orish tizimining hosildorlikka ta'siri yoritilgan. Ekinlarni parvarishlashda yagonalash, begona o'tlarga qarshi kurash hamda optimal ko'chat qalinligini shakllantirishning ahamiyati asoslab berilgan. Olingan ma'lumotlar Qora Shahzoda navidan yuqori va sifatli hosil olishda samarali agrotexnik tadbirlarni qo'llash muhim ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qorashahzoda (*sesamum indicum L.*), laboratoriya sharoitlari, urug', unuvchanlik, ko'chat.

KIRISH

Respublikamizda kunjutdan yuqori sifatli hosil yetishtirish hamda jahon bozorida eksport salohiyatini oshirish uchun, rayonlashtirilgan kunju navlarining birlamchi va nav urug'chiligini tashkil etish, dehqonlarni sifatli urug'liklar bilan uzluksiz ta'minlash va yetishtirish agrotexnologiyasini to'g'ri joriy etish talab etiladi.


Vazirlar Mahkamasining 27.05.2025 yildagi «Qoraqalpog'iston Respublikasida kunjut va mosh ekinlarini yetishtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 331-son qarori. Qoraqalpog'iston Respublikasida yuqori daromadli va eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi xususiy sektor vakillariga ko'maklashish, sohaning eksport salohiyatini yanada yuksaltirish hamda aholi bandligi va daromadlarini oshirish mexanizmini ta'minlaydigan tashkiliy tizimni yo'lga qo'yish maqsadida qabul qilindi [1, 2, 3, 4].

Natijalar muhokamasi: Kunjutning Qora Shaxzoda navi 2012-yil O'zbekiston Respublikasi xududida ekish uchun ro'xsat etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat Reestriga kiritilgan. Qora Shahzoda navi ssp. bicarpellatum Hilt turiga mansub bo'lib, o'rtapishar, o'suv davri sug'oriladigan maydonlarda 100-110 kun, lalmi yerlarda 90 kun. O'simlik balandligi sug'oriladigan maydonlarda 140-150 sm, lalmi maydonlarda 90 sm ni tashkil etadi. Yon shohlar soni 6-8 dona, o'simlikning pastki barglari butun, qirrali tishsimon va shakli tuxumsimon, o'rta qismida joylashgan barglari uzunchoq tuxumsimon qirqilgan, barg qo'ltig'ida qo'zoqchalari bittadan rivojlangan. Qo'zoqchalari to'rt uyali, urug'i to'q qora rang, 1000 dona urug' vazni 3-3,5 g, urug'i tarkibida yog' miqdori 60%. Ekish. O'rta Osiyo sharoitida kunjut urg'ligini ekish, may oylarining oxiri va iyun oyining boshlarida amalga oshiriladi. Bu vaqtga kelib kunlar issiq, ayniqsa kuchli (jala) yomg'irlar ortda qoladi, chunki qisqa vaqtli past xarorat, kuchli jala nixollarni juda tez zararlaydi. Ekish uchun olingan urug'likning sifati 2 sinf va undan yuqori bo'lishi talab etiladi. Urug' unuvchanligi 90% dan yuqori bo'lishi kerak.

Tuproqning mexanik holatidan kelib chiqib sug'orish ariqlari 60; 70 va 90 sm kengliklarda olinadi. Urug'lik katta maydonlarda maxsus seyalkalar yordamida, kichik maydonlarda esa qo'l kuchi bilan amalga oshiriladi. Har bir gektar maydonga 6-8 kg urug'lik sarflanadi. Pushtaga chiqarmasdan qondirib sug'oriladi.

Ekinlarni parvarishlash. Ko'chatlar to'la unib chiqqanidan keyin, nihollar atrofi yumshatiladi va begona o'tlardan tozalanadi. Ko'chatlar 2-3 chinbarg chiqarganda birinchi yagonalash o'tkaziladi. Xar bir uyada 3-4 tadan baquvvat nixollar qoldiriladi. Uyalar orasi pushta kengligiga bog'liq holda 5-10 sm ni tashkil qiladi. Oradan 7-8 kun o'tgach so'ngi yagonalash o'tqazilib, uyada bittadan eng baquvvat, sog'lom ko'chat qoldiriladi.

"O'simliklar genetik resurslari institutidan" kunjutning Qora shaxzoda navi urug'lari olib kelindi. "O'zbekiston Respublikasi ekologiya atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarish vazirligi huzuridagi Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi" laboratoriyasida kunjut urug'larini unuvchanligini aniqlash uchun beshta tarorlikda 100 donadan urug' olinib, petri chashkasida tahlil olib borildi. Urug'lar unuvchanligini aniqlashda Petri chashkasini tagiga namlangan filtr qog'ozi qo'yilib, so'ngra 100 donadan urug' oralari ochiq holda (bir-biriga tegmaslik uchun) ekildi. Petri chashkasidagi urug'lar laboratoriyada termostatda 200C haroratda unuvchanligi o'rganildi. Ekilgan vaqti, sanasi daftarchaga yozib qo'yildi. GOST 12038-84 standarti talabi bo'yicha kunjut (*Sesamum indicum* L.) o'simligi urug'ining unuvchanligi 5 kunda to'liq unib chiqib, urug'larning o'rtacha unuvchanlik darajasi 92,0-95,0 % ni tashkil qildi.



Kunjut qimmatli moyli ekin bo'lib, oziq-ovqat va sanoat uchun muhim xomashyo hisoblanadi. Uning biologik xususiyatlarini chuqur o'rganish va agroteknik tadbirlarni to'g'ri tashkil etish yuqori hosildorlikka erishishda asosiy omillardan biridir. Respublikamizda kunjut yetishtirishni kengaytirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vazirlar Mahkamasining 27.05.2025 yildagi «Qoraqalpog'iston Respublikasida kunjut va mosh ekinlarini yetishtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi
2. Amanova M.E. Kunjut ekoguruhlarining biologik xususiyatlari va seleksiya uchun birlamchi manbalar//Agro-ilm jurnali № 1(21), 31 b. Toshkent 2012 y
3. M.E.Amanova, A.S.Rustamov//Moyli ekinlar jahon kolleksiyasini o'rganish bo'yicha uslubiy qo'llanma//Respublika yoshlarining "BIOEKOSAN" o'quvslubiy majmuasi. Toshkent 2010. 20 bet, adadi 300.
4. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/qoraqalpogistonda_kunjut_va_mosh_ekinlari_k_upaytiriladi